

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ESTETIK MADANIYATINI OSHIRISHDA
MUSIQA TA'LIMI OMILINING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI****СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФАКТОРА МУЗЫКАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА****SOCIO-PHILOSOPHICAL ISSUES OF THE FACTOR OF MUSIC EDUCATION IN
IMPROVING THE AESTHETIC CULTURE OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN**

Maxmudov Shoxrux O'tkirbek o'g'li 
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda musiqa ta'limini modernizatsiyalashning yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishdagi o'rni va nazariy-metodologik asoslari, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda Yangi O'zbekistonda musiqa ta'limini modernizatsiyalashning mexanizmlari va tizimini takomillashtirishning samaradorligi, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье исследуются роль и теоретико-методологические основы модернизации музыкального образования Нового Узбекистана в повышении эстетической культуры молодежи, эффективность совершенствования механизмов и системы модернизации музыкального образования Нового Узбекистана в повышении эстетической культуры молодежи, социально-философские факторы повышения эстетической культуры молодежи. Также анализируются социально-философские вопросы фактора музыкального образования в повышении эстетической культуры молодежи Нового Узбекистана.

Abstract

The article studies the role and theoretical and methodological foundations of the modernization of music education in New Uzbekistan in improving the aesthetic culture of youth, the effectiveness of improving the mechanisms and system of modernization of music education in New Uzbekistan in improving the aesthetic culture of youth, socio-philosophical factors of improving the aesthetic culture of youth. Also, socio-philosophical issues of the factor of music education in improving the aesthetic culture of youth in New Uzbekistan are analyzed.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, jamiyat, modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy, individual, mexanizm, texnologiya, madaniyat, modernizatsiyalash, estetik madaniyat.

Ключевые слова: музыкальное образование, общество, модернизация, инновация, социальный, индивидуум, механизм, технология, культура, модернизация, эстетическая культура.

Key words: music education, society, modernization, innovation, social, individual, mechanism, technology, culture, modernization, aesthetic culture.

KIRISH

Musiqa san'ati inson paydo bo'lgan davrdan boshlab uning hayot yo'ldoshi bo'lib kelmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berilib, ularni xalqimizning madaniyati, san'ati, tarixi, adabiyoti, tili va milliy qadriyatlariga muhabbat ruhida tarbiyalash ustivor vazifadir. Zero, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, ahloqiy, estetik madaniyati barqaror shakllangan shaxsni tarbiyalash shu kunning talabidir. Insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashi va madaniy kamolotining shakllanishida musiqa boshqa san'at turlari ichida o'zining ta'sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida haqli ravishda ta'kidlaganlaridek: "Bizning vatanimizda musiqaning sehrli kuchini his etmay yashayotgan kishini topish qiyin. Bugungi kunda ayniqsa musiqa san'ati boshqa san'at turlariga nisbatan yoshlarning tarbiyasiga ko'proq va kuchliroq ta'sir etmoqda".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqa ta'limini modernizatsiyalashning yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishdagi o'rni va nazariy-metodologik asoslari, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda musiqa ta'limini

modernizatsiyalashning mexanizmlari va tizimini takomillashtirishning samaradorligi, yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari S.Orff, Z.Kodaly, M.Montessori, R.Steiner, N.Lebresht, T.M.Kargorolova, L.A.Nikitina, V.V.Baxtin, E.V.Smotrova, E.S.Borisova, G.V.Baybikova, N.Azizxodjaeva, A.Aripdjanova, G.Ibragimova kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musiqqa ruhiy holat hususiyatlarini ifodalash bilan insonni qurshab turgan atrof-muhit va tabiatni, xalqning milliy ruhini o'zida aks ettira oladi. Shu sababli, buyuk kompozitorlar ijodida milliy kuy ohanglarini, shu xalqqa xos bo'lgan xususiyatlarni anglab olish mumkin. Musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqotiga yordam beruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Musiqaning mazmuni spetsifik musiqiy obrazlarda xaqiqiy borliqning aks ettirilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909 Qaroriga muvofiq "Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'alariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish" vazifalari belgilandi. Musiqa va boshqa san'at turlari insonning nafaqat emotsional, balki butun ma'naviy hayotini aks ettirib, g'oyaviy, estetik bilim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy jabhalarida olib borilayotgan yangilanish, islohotlar davrida xalqimizning ma'naviyati, madaniyatini qayta tiklash va yangi qirralarni kashf etish, respublikamizda amalga oshirilayotgan musiqiy ta'limni takomillashtirish uning samaradorligini oshirishning eng muhim shartidir. Bunda Sharq musiqasining musiqiy va poetik asoslarining mushtarakligiga mazmun va shakl jihatdan alohida e'tibor qaratilishi talab etiladi.

Jamiyat badiiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda san'at muxlislarining alohida o'rni bor, binobarin, madaniyatning yuksalishi san'atkorlar bilan muxlislar ommasida o'rtasida aloqadorlikning mustahkamligi, san'atning tomoshabin, tinglovchi va kitobxonni ma'naviy tarbiyalashdagi rolining ortib borishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan, kishilar doimo san'at asarlari bilan qiziqib, yangi asarlarga ijtimoiy baho beradi, san'atkorlar bilan jamiyatning rivojlanib boruvchan ehtiyojlari o'rtasida mavjud dialektik aloqani mustahkamlaydi.

Qadimdan musiqa va uning asosiy ifoda vositalari – kuy va ritm inson kayfiyatini o'zgartiradi, deb qaralgan. Yunonistonda musiqa san'ati – she'riyat, raqs va asosan kuy inson ruhiyatiga eng buyuk ta'sir qiluvchi vosita deb hisoblangan. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va his-tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'liqlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'lib, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining cheksiz imkoniyatlari qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan. Yunon mumtoz asarlarida musiqa uchta yo'nalishni – she'riyat, raqs va musiqani birlashtiruvchi, inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi eng qudratli vosita hisoblangan. O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqiy tarbiyalashning ahamiyati haqida qadimgi yunon olimlari muhim fikrlarni bayon etganlar. Chunki kelajak jamiyat a'zosining axloqiy va fuqarolik sifatlarining shakllanishi bolalikdan boshlanadi. O'sha davrlarda ham musiqa shaxsning shakllanishidagi o'ta muhim vositalardan iborat deb hisoblangan. Chunki borliqni aks ettirishda musiqaning xususiyatlari va imkoniyatlari cheksiz. Ma'lumki, inson nutqining boyligi va dastavval uning ohang boyligi musiqadan ma'lum tuyg'u, kayfiyat, kechinmani ifodalash uchun foydalanadi. Bu, avvalo ifodalash san'ati hisoblangan musiqaning maxsus obrazlilik asosidir. Masalan, ba'zi hazin kuylar insonda qayg'u hislarini paydo qilsa, yengil, o'ynoqi yoki tantanavor kuylar kishida shodxurramlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Zero, musiqa – tuyg'u va kayfiyat uyg'otuvchi inson ruhiy dunyosining tovushlarda ifodalanishidir.

Xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'pladi, uni takomillashtirdi va ijtimoiy hayotida turli vositalar orqali kelajak avlodga meros qoldirdi. Musiqa inson hissiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy

tarbiyalashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al-Farobiy «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir» degan edi, bobomiz Shayx Saodiy esa «Musiqqa odam ruhining yo'ldoshidir», deb ta'kidlaydi.

O'quvchi-yoshlarda milliy g'urur va milliy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. O'zlikni anglash esa butun borliq, hayot va adabiyotning tub mohiyatini anglashga yo'l ochadi. Bundan ko'rinadiki, milliy g'urur o'z yurtining tarixini bilish, xalqining madaniy merosini asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazish orqali milliy qadriyatlarni tiklash, shu yo'l bilan millat va vatan taraqqiyotiga xizmat qilishni anglatadi. Bizning eng katta yutug'imiz o'z boyligimiz, o'zligimizga ega bo'lganimizdir. Binobarin, yoshlarga ushbu boylklarning qadriga yetish zarurligini o'rgatishimiz, ularda minnatdorchilik, g'urur, ishonch tuyg'ularini tarbiyalashimiz kerak bo'ladi.

XULOSA

Dunyo tajribasidan ma'lumki, musiqiy tarbiyani to'g'ri olgan o'quvchi-yoshlarning qalbida yovuzlik, vatanfurushlik, sotqinlik, xiyonatkorlik kabi illatlar bo'lmaydi. Shuning uchun ham umum ta'lim maktablarida o'qitiladigan «Musiqqa madaniyati» fani o'quvchilarni faqat axloqiy-estetik jihatdan emas, balki milliy-mafkuraviy, tarbiyali va komillikka intiluvchi, jamiyatga foyda keltiruvchi qilib tarbiyalaydi. Musiqqa ta'limining maqsadlaridan biri turli tushunchalarni aniqlash va o'quvchilarni ko'proq konseptual fikrlashga, ularning bilim va musiqiy qobiliyatlarini mavhumroq darajada ishlatishga harakat qilishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 20.04.2017 йилдаги ПҚ-2909-сон. <https://lex.uz/docs/3171590>
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: «Ўқитувчи», 1992. – Б. 12-13.
3. Арзиматова И.М. Жамият бадиий-эстетик маданияти ривожланишида санъатнинг ўрни. НамДУ илмий ахборотномаси. 2019, №1. – Б. 131-134
4. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – Б. 139
5. Каримова Д.А., Хоназарова Р. Ўқувчи-ёшларни эстетик тарбиялашда «музыка маданияти» фани олдида турган долзарб масалалар. Замонавий таълим. 2018, 7. – Б. 29-35.
6. Панжиев Қ., Азизов Р.К. Эстрада қўшиқчилиги ёшларни тарбиялашнинг маънавий воситаси сифатида. Замонавий таълим. 2018, 7. – Б. 11-16